



O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILISHINING AMALIY AHAMIYATI VA DAVLAT TILI SIFATIDA MUSTAHKAMLASH USULLARI

Kenjayev To'liq Quvanovich

Navoiy davlat universiteti «Pedagogika nazariyasi
va tarixi» yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17513064>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

so'z va iboralar davlat tili,
rasmiy muloqot tili, davlat tili
haqidagi qonun, milliy til,
xalqaro tashkilotlar-
BMT, Yunesko, o'zbek tilidagi
kontent (filmlar, multfilmlar,
podkastlar)lar.

ABSTRACT

Bu maqolada o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, davlat boshqaruvi, ta'lim, fan va san'at sohasida davlat tilining ahamiyati, bu sohalarda yagona til tizimiga o'tilishining afzalliklari, xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida tan olinishi bilan bir qatorda, o'zbek tilining ham mustaqil milliy til sifatida tanilishi haqida so'z yuritiladi. Maqoladan davlat tilida ish yurituvchilar va keng aholi o'qib o'rganishi mumkin.

1989 yil 21 oktabrda tarixiy voqea ro'y berdi. Sobiq ittifoq respublikalari orasida O'zbekistonda birinchilardan bo'lib o'z tiliga davlat tili maqomi berildi. Ayniqsa mustaqillikdan so'ng davlat boshqaruvi, ta'lim va tarbiya sohasida, milliy o'zligimizni anglashda huquqiy tenglik va fuqarolar birdamligini mustahkamlashda, xalqaro miqyosda o'zbek tilining tanilishida beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Davlat boshqaruvida yagona tilning shakllanishi rasmiy hujjatlar, qonunlar, farmonlar, arizalar va boshqa davlat ish yuritishdagi me'yoriy hujjatlar o'zbek tilida yuritila boshlandi. Natijada yagona tilning mavjudligi rasmiy muloqotning bir xillikda olib borilishini ta'minlay boshladi. Bu o'z navbatida rasmiy muloqot tilini yaratdi. Davlat tili xalq tili bilan uyg'unlashdi, boshqaruv tizimida adolatli va tushunarli aloqa vujudga keldi.

Davlat tiliga o'zbek tili maqomining berilishi davlat idoralari o'rtasida muvofiqlikni kuchaytirdi, hujjatlar yuritishdagi chalkashliklarni kamaytirdi, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirdi, chunki endi ular o'z ona tilida ariza, shikoyat yoki so'rov bilan murojaat erkin qila ola boshladilar. Davlat va xalq o'rtasidagi ishonch mustahkamladi, chunki boshqaruv tili endi xalqning tili bilan birlashdi, ma'muriy ish yuritish madaniyatini rivojlantirdi, hujjat tili soddalashib, xalq tiliga yaqinlashdi. Barcha vazirliklar, mahalliy hokimliklar, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, sud va prokuratura organlarida ish yuritish o'zbek tilida olib boriladi. Bu esa davlat mustaqilligini, milliy qadriyatlarini va til siyosatini mustahkamlashning muhim omilidir.

Davlat boshqaruvida yagona tilning shakllanishi — davlat suvereniteti va milliy birlikning belgisi bo'lib, u xalqni birlashtiradi, davlat ishlarini aniq, tartibli va adolatli olib borish imkonini yaratadi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ta'lim va fan sohasida rivojlanishga turtki bo'ldi, Bu o'zbek tilining nufuzi va imkoniyatlarini kengaytirdi, yosh avlodning milliy ruhda tarbiyalanishiga, ona tilida bilim olishiga sharoit yaratdi. Ta'lim tizimida o'zbek tilining mavqei oshdi, avvallari, ko'plab ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni boshqa tillarda olib borilgan, o'zbek tili esa cheklangan doirada ishlatilgan edi. Davlat tili maqomi berilgach barcha maktab, litsey, texnikum va oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili asosiy ta'lim tili sifatida joriy qilindi, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar o'zbek tilida yaratiladigan bo'ldi, imlo, grammatik va adabiy til me'yorlari ta'lim jarayonida mustahkam o'rganila boshlandi. Bu esa o'quvchilarning ona tilida erkin fikrlash, o'z fikrini aniq ifodalash, mustaqil yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishiga imkon berdi.

Fan sohasida o'zbek tilida izlanishlar kengaydi deya olamiz Davlat tili maqomidan so'ng, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar o'zbek tilida yozila boshlandi, ilmiy terminologiya boyidi, fan tarmoqlarida minglab yangi o'zbekcha atamalar yaratildi.

Fan va texnika sohasidagi murakkab tushunchalarni o'zbek tilida ifodalash imkoniyati paydo bo'ldi, oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqotlar o'zbek tilida himoya qilinadigan darajaga yetdi, buning natijasida o'zbek tili faqat adabiyot va san'at tili emas, balki fan, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot kabi sohalarida ham faol ishlatiladigan, zamonaviy ilmiy tilga aylandi.

O'zbek tili ta'lim va fan tiliga aylangani yosh avlodda milliy g'urur va o'zlikni anglash hissini kuchaytirdi. Ilgari o'zga tillarda yozilgan ko'plab ilmiy asarlar endi o'zbek tiliga tarjima qilinib, xalqimiz ilmiy boyligiga aylangan. Shu bilan birga, o'zbek tilida yangi avlod olimlari, tilshunoslar va pedagoglar yetishib chiqmoqda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi natijasida ta'lim va fan sohasida milliy uyg'onish davri boshlandi. O'zbek tili endi nafaqat aloqa vositasi, balki ilmiy izlanishlar, ta'lim, texnologiya va innovatsiya tili sifatida ham yuksak darajada rivojlanmoqda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng milliy o'zlikni anglash kuchaydi, chunki til — har bir xalqning yuragi, ruhi va o'zligini ifoda etuvchi eng muhim boylkdir. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimiz tarixida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan voqea bo'ldi. Bu qaror o'zbek xalqining o'zligini anglash, milliy g'ururini tiklash va ma'naviy uyg'onishiga kuchli turtki berdi.

Ona tili har bir millatning ma'naviy ildizidir. O'z tilida so'zlash, o'ylash va ijod qilish — bu milliy o'zlikni saqlashdir. Davlat tili maqomining berilishi orqali o'zbek xalqi o'zining boy tarixiy-madaniy merosiga, qadimiy yozuvlariga, adabiyoti va san'atiga qaytdi, bu esa milliy o'zlikni chuqurroq anglash, o'z tarixidan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirdi. Davlat tili maqomidan keyin o'zbek tili barcha sohalarida qo'llanila boshladi. Maktab, oliy o'quv yurtlari, davlat idoralari, ommaviy axborot vositalarida o'zbek tili asosiy aloqa vositasiga aylandi.

Odamlar o'z ona tilida so'zlashishdan faxrlanadigan, uni e'zozlaydigan bo'ldi. Bu jarayon yosh avlod ongida milliy iftixor, Vatanga sadoqat, o'zligiga hurmat hissini mustahkamladi.

O'zbek tilining rasmiy maqomga ega bo'lishi bilan adabiyot, san'at, matbuot va madaniyat sohalarida katta jonlanish yuz berdi. Yangi asarlar, darsliklar, ilmiy va badiiy kitoblar o'zbek tilida yaratilmoqda. Alisher Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi buyuk ajdodlarimiz merosi xalq orasida keng targ'ib qilinmoqda. Bu esa milliy o'zlikni, tarixiy xotirani va tilga hurmatni yanada kuchaytiradi. Til – bu millatni birlashtiruvchi, xalqni yagona maqsad sari yetaklovchi eng muhim omillardan biridir. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi nafaqat

madaniy va ma'naviy sohada, balki huquqiy tenglikni ta'minlash va fuqarolar o'rtasida birdamlikni kuchaytirishda ham g'oyat muhim qadam bo'ldi.

Davlat tili – fuqarolik tengligining kafolati bo'ldi deya olishga to'la asoslarimiz bor. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgach, barcha fuqarolar o'z ona tilida murojaat qilish, ariza yozish va huquqiy masalalarda fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa har bir fuqaroning teng huquqliligini ta'minladi,

til asosida kamsitilish holatlariga barham berdi va davlat organlari oldida barcha fuqarolar uchun adolatli muhit yaratdi.

Shunday qilib, davlat tili maqomi o'zbek tilida so'zlashuvchi fuqarolarning huquqiy ishtirokini kengaytirib, ularni jamiyat hayotida faolroq bo'lishiga turtki berdi.

Davlat tili — mamlakatda yashovchi barcha millat va elatlarni birlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, turli xalqlar tinch-totuv yashaydi. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi barcha fuqarolarning umumiy aloqa va tushunish tiliga aylanishiga sabab bo'ldi

Turli millat vakillari o'zaro muloqotda yagona tilda so'zlasha boshladi, millatlararo totuvlik va hurmat mustahkamlandi, O'zbek tili bu jarayonda millatlararo do'stlik va totuvlik tili sifatida o'z o'rnini topdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqidagi qonunning 1- moddasida « O'zbekiston Respublikasi o'z hududida yashab turgan barcha millat va elatlar tillarining erkin amal qilishini ta'minlaydi, ushbu tillar ravnaq topishi, ularga hurmat bilan munosabatda bo'linishi uchun tegishli sharoit yaratadi» deb belgilangan ¹

Davlat tili – bu davlat ramzlari qatori turadigan muqaddas qadriyatdir. O'zbek tiliga hurmat fuqarolarning Vatanga bo'lgan sadoqatini oshiradi.

O'z ona tilida gapirish, o'qish va yozish imkoniyati har bir insonda milliy g'urur, vatanparvarlik, va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Shu tariqa o'zbek tili xalqni birlashtiruvchi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omilga aylandi.

Bu orqali har bir fuqaro o'z ona tilida erkin fikr bildirishi, davlat bilan teng asosda muloqot qilishi, millatidan qat'i nazar, o'zini bir butun xalqning a'zosi deb his etishi mumkin bo'ldi.

Har bir millatning mustaqilligini belgilovchi asosiy unsurlardan biri — uning tili hisoblanadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham o'zbek xalqining o'zligini, madaniyatini va tarixini tanitishda muhim qadam bo'ldi. Bu qaror tufayli o'zbek tili dunyo miqyosida tan olinib boshladi, xalqaro aloqalarda o'z o'rnini topdi.

Davlat tili maqomidan so'ng o'zbek tili davlat ramzlari qatorida e'tirof etildi. Bu hol xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida tan olinishi bilan bir qatorda, o'zbek tilining ham mustaqil milliy til sifatida tanilishini ta'minladi.

Bugungi kunda o'zbek tili BMT, YUNESKO, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlarda qo'llanilmoqda, xorijiy universitetlarda o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha markazlar ochilganligi va ko'plab mamlakatlarda o'zbek tili kurslari va fakultetlari faoliyat yuritayotgaligini aytishimiz mumkin

O'zbek tili maqomi oshgani sari o'zbek adabiyotining durdonalari ham ko'plab tillarga tarjima qilinmoqda.

Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari ingliz, rus, turk, arab, koreys va boshqa tillarga tarjima qilinib, jahon kitobxonlariga yetkazilmoqda.

Lex uz (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989-y., 26-28-son, 453-modda; 1991-y., 11-son, 273-modda)

Shuningdek, o'zbek tili orqali xalqimizning qadimiy madaniyati, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini va musiqasi ham xorijda tanilmoqda. Shu tariqa o'zbek tili xalqimizning madaniy elchisiga aylandi.

O'zbek tilini davlat tili sifatida mustahkamlash — bu nafaqat til siyosatining, balki milliy g'urur va madaniyatning muhim yo'nalishidir. O'zbek tilini davlat tili sifatida nufuzini oshirishda avvalo ta'lim tizimida o'zbek tilining nufuzi va sifatini oshirish muhim deb hisoblayman. Buning uchun maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha o'zbek tilini chuqur o'rgatish tizimini takomillashtirish, ona tili va adabiyot fanlariga zamonaviy metodikalarni joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, Chet tillarini o'rgatishda o'zbek tili bilan uyg'unlikni saqlash (masalan, tarjima, taqqoslash, tahlil usullarini qo'llash)ga e'tibor qaratish zarur.

Davlat boshqaruvida o'zbek tilidan to'liq foydalanishni ham yo'lga qo'yish zarur. Hanuzgacha ayrim tashkilotlarda rasmiy hujjatlar, o'zbek tilida tayyorlanmasdan qolmoqda. Davlat idoralarida xizmat yuritish va yozishmalarda o'zbek tilidan majburiy foydalanish tizimini yo'lga qo'yish kerak. Buning uchun xodimlarning til bilimi darajasini baholash tizimini yo'lga qo'yish, tashkilot kadrlar bo'yicha mutaxassislarni, ijrochilarni shu masalada o'qitish tizimini takomillashtirish zarur.

Ommaviy axborot vositalarida til madaniyatini yuksaltirish ham juda muhim. So'zlashuv avvalo eshitish orqali inson ongiga singadi. Shuning uchun televidenie, radio, internet nashrlarida adabiy o'zbek tilidan to'g'ri foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, sifatli, madaniy va zamonaviy o'zbek tilidagi kontent (filmlar, multfilmlar, podkastlar) ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash va jurnalistlar va blogerlar uchun til madaniyati bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish muhim.

Til me'yorlari va imlo qoidalarini takomillashtirishni ham zamoni o'z oldimizga talab qo'yimoqda. Buning uchun, avvalo, imlo va so'z boyligini zamon talablariga moslashtirish, atamalar qo'mitasi faoliyatini kuchaytirish, ilmiy va texnik sohalar uchun o'zbekcha terminlarni ishlab chiqish, lug'atlar, o'quv qo'llanmalar, elektron resurslarni muntazam yangilab borish.

Biz yuksak texnologiyalar asriga qadam qo'ydik, raqamli sohada o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytirishni davr talab etmoqda. Shuning uchun o'zbek tilidagi dasturiy ta'minot, interfeyslar, sun'iy intellekt tizimlarini yaratish, o'zbek tilida ovozli yordamchilar, klaviatura, avtomatik tarjima xizmatlarini takomillashtirish, internetdagi kontentning (maqolalar, videolar, forumlar) o'zbekcha qismini kengaytirish kerak.

Jamiyatda tilga hurmat va muhabbatni kuchaytirish ham davlat tili nufuzini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli o'zbek tili kunini keng nishonlash, til fidoyilari va olimlarini rag'batlantirish, yoshlar o'rtasida til bo'yicha tanlovlar, she'riyat kechalari, insholar musobaqalarini tashkil etish, Chet eldagi o'zbek diasporalari orasida o'zbek tilini saqlash va rivojlantirish dasturlarini yo'lga qo'yish kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili bugun O'zbekiston xalqlarining birligi, totuvligi va tengligi ramziga aylangan. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi — milliy mustaqillikning ramzi, xalq birligining omili va madaniy taraqqiyotning asosi bo'lib ko'p yillar xizmat qilladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: –O'zbekiston. 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 y, 23-sentyabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi 158-son Farmoni 2023-yil 11-sentabr
4. Prezidentning “O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-300-son qarori 2023-yil 11-sentabr
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (Shavkat Mirziyoyevning Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi) Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2017
6. Karimov S.A. “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish”, T, “O'zbekiston” nash.2003 yil
7. <https://edu.profedu.uz/> Metodik ta'minlash platpormasi,murojlat etilgan sana, 14.10.2024
8. <https://lex.uz/docs/>

INNOVATIVE
ACADEMY